

XORIJIY TIL KOMPETENSIYALARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA SAMARALI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Ibroximjonova Umidaxon

UzSWLU, 3rd English Faculty, 1st course, 21(102)-group

Scientific advisor: Toshpo 'latova Fotima Ungarovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy til kompetensiyalarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish va yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llash ta'lim samarasini oshiradi va til o'rganishga motivatsiyani oshiruvchi omil bo'la oladi.

Bugungi jahon globallashtirish davrida chet tilini o'rganish va o'rgatish zamon talabiga aylanib ulgurdi. Xalqaro tashkilotlarning fikriga ko'ra, til kompetensiyalari turli xil dasturlarga ega ayniqsa, innovatsion texnologiyadan foydalanish chet tilini o'qitishda eng samarali usuli hisoblanadi. Yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishdagi yangicha zamonaviy yondashuv xorijiy til o'qitishning maqsadini o'quvchilarga bilim berish va ma'lum, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagina e mas, balki shu bilan birga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchaytirish va ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchini hosil qilishni ham o'z ichiga oladi.

Ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- Darsni o'qitish jarayonida har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishda erkin muloqotga kirishishni rivojlantirish;
- Talim jarayonida ham faollikni oshiruvchi metod va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish

Innovatsion texnologiyalarning xorijiy til kompetensiyalarini o'qitishdagi

ahamiyati katta. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsni sifatli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalardan ta'lim samaradorligini oshirish uchun foydalanishning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'gartirishlar kiritishdir. Innovatsion texnologiya vositalaridan foydalanib, dars o'tish jarayonida chet tilida videosujet namoyish etish yanada ko'proq samarali bo'ladi. O'quvchilar zavq bilan tomosha qiladilar va topshiriqlarni qiziqib bajaradilar. Natijada filmlarni o'z original tilida ko'rib, tilni o'zlashtirishlari oson bo'ladi.

Bularning barchasi o'quvchi-yoshlarning chet tillarini xorijiy innovatsion texnologiyalar vositasida o'rganishga qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Dunyo rivojlangani sari chet tillariga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda, shu bois xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishdarsni har tomonlama sifatli va qiziqarli bodishini ta'minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar talaba yoshlarni muntazam ravishda bilim va malakalarini oshirishga undovchi muhim omilga aylanadi.

Mazkur omil zamon bilan hamnafas kadr bo'lib yetishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axborot kommunikativ texnologiyalari [Islom Karimov PQ-187 5-son 2012 yil 10-dekabr]
2. J. Jalolov Chet tili o'qitish metodikasi
3. Google Scholar
4. Paluanova, X. D. "Derivation-semantic principles of ecological terms in English, Uzbek, Russian and Karakalpak languages: Dr. phil. sci. diss." (2016).